# 2020-yilning yanvar oyida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar- mart oylarida Xorazm viloyatida jami 188,5 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ni tashkil etdi.

**Raqamlar:**

Qurilish ishlari hajmi-

**188,5 mlrd. so`m**

Yirik qurilish tashkilotlari ulushi – **2,5 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi -

**69,9 %**

Norasmiy sektor ulushi -

**27,6 %**

Jami qurilish ishlari hajmida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 4,7 mlrd. so‘m ishlar bajarildi. Bu esa tarmoqning jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,5 % dan iborat ekanini hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 77,6 % ni tashkil etganini anglatadi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,9 % i to‘g‘ri keldi. Ular tomonidan 131,7 mlrd. so‘m ishlar bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 116,7 % ni tashkil etdi. Umumiy bajarilgan ishlarning 27,6 % i norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelib, 52,1 mlrd. so‘m bunyodkorliklar amalga oshirildi. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 90,1 % ni tashkil etganini ko‘rsatadi.

# 2020-yilning yanvar oyidagi qurilish ishlari tarkibi

2020-yil yanvar oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 77,6 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining o‘sish sur‘ati esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 116,7 % dan iborat bo‘ldi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 90,1% ni tashkil etdi.



## 2020-yil yanvar oyida qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismini qurilish loyihalari, ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar tashkil etadi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 81,6 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9  % punktga ko‘paydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda jamiga nisbatan 13,4 % ni tashkil etib, o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,0 % to‘g‘ri kelib, o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan ulushi 0,7 % punktga kamaydi.

# Yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



# 2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalari, ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda mo‘ljallanmagan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlardan iborat. Bunda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,9 % ni tashkil qilganini ko‘rish mumkin.

Fuqarolik qurilishi ob’ektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,0 % ga o‘sgan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 94,4 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari (mlrd. so`m)**



# 2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 177,5 mlrd. so‘m qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 94,1 % dan iborat bo‘ldi.




Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 11,0 mlrd. so‘m qurilish-montaj ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,9 % ni tashkil qildi.



# 2020-yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

Shahar va tumanlarda bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari quyidagilardan iborat:

Bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahrida 44,0 mlrd. so‘mni, Bog‘ot tumanida 10,8 mlrd. so‘mni, Urganch tumanida 18,9 mlrd. so‘mni, Xonqa tumanida 15,0 mlrd. so‘mni, Xiva tumanida 27,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (mlrd. so‘m)**



# 2020-yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan ulushi, % da)

Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlari hajmining viloyatda eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 23,4 % ni tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda bu ulush Urganch tumaniga 10,0 %, Xiva tumaniga 14,7 % va Yangiariq tumaniga 4,7 % dan to‘g‘ri keldi.



# 2020-yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(o‘tgan yilninig mos davriga nisbatan, % da.)

Qurilish ishlari eng yuqori o‘sish sur’ati quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi:

Bajarilgan qurilish ishlari jadal borishi tufayli o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan Urganch shahrida 102,7 % ni, Hazorasp tumanida 116,0 % ni tashkil qildi.

**O‘tgan yilninig mos davriga nisbatan, % da.**



## 2020-yil yanvar oyida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi (mlrd. so'm)




Shahar va tumanlarda binolar va inshootlarni qurish ishlari tahliliga e'tibor qaratilsa, Urganch shahrida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 1,6 mlrd. so'm ishlar bajarilgani qayd etildi. Bu esa o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 68,6 % ni tashkil qilganidan darak beradi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 34,5 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 116,2 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan 7,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 73,2 % ga yetdi.

Urganch tumanida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2,5 mlrd. so‘m ishlar bajarilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 169,7 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 11,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari amalga oshirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 97,4 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektor tomonidan 4,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari hajmi bajarilgan bo‘lib, bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,0 % ni tashkil qilgani e’tiborga molik.

**Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi**
**Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi**
**Nashr uchun mas’ul: SH.Babajanov**
**Telefon: (0362) 224-65-22**